




Yurtimiz bo'ylab "yashil" belbog'lar barpo etilmoqda






Bugun davlatimiz rahbari Toshkent shahri atrofida "yashil" belbog' barpo etish loyihasida ishtirok etib, daraxt ko'chatlari ekdi. Mazkur loyiha yurtimizning barcha hududlarida amalga oshirilayotgan bo'lib, tanlab olingan maydonlarda daraxt va buta ko'chatlari ekilmoqda.

Xususan, Surxondaryo viloyati Termiz tumanida 100 hektar maydonda bugun erta tongdan davlat va jamoat tashkilotlari, nuroniyalar, faollar va yoshlari jam bo'lishib, "yashil" belbog' yaratish maqsadida daraxt va buta ko'chatlari ekish tadbirida ishtirok etdi.















Tanlab olingan maydonning tuproq unumdorligi va sug'orish tizimiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bir qismida oqma, bir qismida tomchilatib sug'orish texnologiyasidan foydalaniladi. Bog'ning ushbu hududda tashkil etilishida "Afg'on" shamolining yo'nalishi hisobga olingan bo'lib, kelgusida mazkur daraxtlar ekotizimni yaxshilash, changlarni tutib qolish orqali aholi salomatligini asrashga xizmat qiladi.















Ma'lumot uchun, 100 gektar maydonda tashkil etilayotgan "yashil" belbog' hududidiga 55 mingga yaqin daraxt va buta ko'chatlari ekilishi rejalashtirilgan bo'lib, bugunning o'zi ayni vaqtga qadar 5 gektardan ortiq maydonga 2,8 ming tup manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekildi.









Vohamiz bo'ylab, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt ko'chatlari ekish tadbirlari davom etmoqda.